KIMYO

UDK: 547.525.211.1 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a79**

JIG‘ILDON QAYNASHI KASALLIGIDA QO‘LLANILADIGAN DORI VOSITALARI VA ULARNING KIMYOVIY TARKIBI

ЛЕКАРСТВА, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ ПРИ ИЗЖОГЕ И ИХ ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ

DRUGS USED FOR HEARTBURN, AND THEIR CHEMICAL COMPOSITION

Asqarov Ibrohimjon Rahmonovich[1], To‘ychiev G‘ofurjon O‘rmonovich[2]

[1]Ibrohimjon Rahmonovich Asqarov – Andijon davlat universiteti Kimyo kafedrasi professori, Kimyo fanlari doktori, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan ixtirochi, O‘zbekiston "TABOBAT" Akademiyasi raisi

[2]G‘ofurjon O‘rmonovich To‘ychiev – Andijon davlat tibbiyot instituti farmasevtik fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada jig‘ildon qaynashi kasalliklarini kelib chiqishi sabablari, bu kasallikni davolashda ishlatiladigan bir necha zamonaviy dori-darmonlar va ularning organizmga tasiri hamda xalq tabobatida foydalanilgan dorivor o‘simliklar va ularning kimyoviy tarkibi, xossalari keltirib o‘tilgan.

Аннотация

В статье описаны причины возникновения изжоги, некоторые современные препараты, применяемые при лечении этого заболевания и их влияние на организм, а также лекарственные растения, применяемые в народной медицине, их химический состав и свойства.

Abstract

The article describes the causes of heartburn, some modern drugs used in the treatment of this disease, and their effect on the body, as well as medicinal plants used in traditional medicine, their chemical composition and properties.

Kalit so‘zlar: *jig‘ildon qaynashi, zarda, qovurilgan, gastroezofogeal reflyuks, kislota, nojo‘ya tasir, dorivor o‘simlik.*

Ключевые слова: *изжога, жареное, гастроэзофагеалный рефлюкс, кислота, побочное действие, лекарственное растение.*

Key words: *Heartburn, heartburn, fried, gastroesophageal reflux, acid, side effect, medicinal plant.*

KIRISH

Ma’lumotlarga ko‘ra me’da qaynashi (jig‘ildon qaynashi, zarda, oshqozondagi moddalarni qizilo‘ngachga qaytganda sodir bo‘ladigan jarayon) yoki jig‘ildon qaynashi keng tarqalgan muammolardan biri bo‘lib, ushbu dardni davosini izlovchilarning ko‘pchiligi bu muammoni o‘zlari bilganicha yoki mutaxassis bo‘lmagan kimsalarning maslahatiga amal qilgan holda hal qilishga harakt qiladi. Buning oqibatida boshlanishida e’tiborsiz tuyulgan xastalik organizmimizda boshqa bir kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Xalqaro miqyosda kasallikning quyidagi tarifi taklif qilingan: Bu oshqozon tarkibidagi suyuqlik bemorni bezovta qiladigan alomatlar va / yoki asoratlari keltirib chiqarganda rivojlanadigan holat. Shu bilan birga, bu kasallikni eng xarakterli alomatlari - (jig‘ildon qaynashi, zarda, nordonlik) va eng ko‘p uchraydigan asoratlar refleks ezofagitidir [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mutaxassislarning ta’riflashicha oshqozon va qizilo‘ngach birikkan joyda maxsus mushak bo‘lib, u tanovul qilingan ovqat luqmasini qizilo‘ngachdan oshqozonga o‘tkazib beradi. Mana shu mushak turli omillar ta’sirida vazifasini bajarmay qo‘ysa, oshqozon shirasi bilan ishlov berilgan luqma ichakka o‘tmay, qizilo‘ngachga qaytib o‘tadi. Bu esa o‘sha siz bilgan holat jig‘ildon qaynashini keltirib chiqaradi. Tibbiyot ushbu hodisaga «gastroezofogeal refluks» nomini bergan.

Jig‘ildon qaynashiga albatta qovurilgan, yog‘li, sho‘r va achchiq yeguliklarni muntazam iste’mol qilishdan tashqari ayrim uzoq muddat qabul qilinadigan dori preparatlari, ovqatlanib bo‘lgach darhol uyquga yotish, taomlarni pala-partish qabul qilish, spirtli va gazlangan ichimliklar, sirka, xantal, murch kabi ziravorlar qo‘shilgan taomlar sabab bo‘lishi mumkin.

Gastroezofageal refluksning vujudga kelishida sanab o‘tilgan omillar bilan birga, oshqozondagi kislota muhitining ham ta’siri katta. Aksar hollarda kislota muhiti yuqori bo‘lgan kishilarda kasallikka moyillik ko‘proq kuzatiladi.

Kislotaning ortiqcha miqdori juda zararli bo‘lib, shilliq qavatni qitiqlaydi. 1910–yilda Shvars kislotaning oshqozon yarasi paydo bo‘lishida tajovuzkor omil sifatida muhimligini takidlab, keyinchalik to‘liq tasdiqlangan fikrni aytdi: "Kislota yo‘q - yara yo‘q"[4].

Homiladorlik paytida jig‘ildon qaynashi ko‘pincha doimiy, tez-tez va og‘riqli bo‘ladi. Uning davomiyligi bir necha daqiqadan soatgacha bo‘lishi, tez takrorlanishi hayot sifatini sezilarli darajada yomonlashishiga sabab bo‘ladi. Jig‘ildon qaynashini bartaraf etish uchun homiladorlarning 30-50% antatsidlardan foydalanadilar [3].

TADQIQOT MAQSADI

Jig‘ildon qaynashini oldini oluvchi yoki davolashda ishlatiladigan zamonaviy dori-darmonlar va xalq tabobatida qo‘llanilayotgan dorivor o‘simliklar kimyoviy tarkibi va nojo‘ya tasirlarini solishtirish.


TADQIQOT USLUBLARI VA NATIJALAR

Quyida jig‘ildon qaynashini oldini oluvchi yoki davolashda ishlatiladigan zamonaviy dori darmonlar - fosfalyugel, maaloks, almagel-neo kabi dori moddalarini kimyoviy tarkibi va nojo‘ya tasirlari bilan tanishib o‘tamiz.


Fosfalyugel gel ichish uchun ta’sir qiluvchi moddasi aluminiy fosfat **(AlPO4**) bo‘lib, asosan jig‘ildon qaynashida ishlatiladi va qarshi ko‘rsatmalaridan buyraklar faoliyatining buzilishi, preparatga yuqori sezuvchanlikdir. Laboratoriya ko‘rsatkichlari bo‘yicha: yuqori dozalarda uzoq muddat foydalanish bilan gipofosfatemiya, gipokalsemiya, qonda aluminiy miqdorining oshishi kabi nojo‘ya tasirlariga ega.

Maaloks suspenziyasi ichish uchun Algeldrat+Magniya gidroksid **$Al(OH)_3$ (Algeldrat) $Mg(OH)_2$** tarkibli ta’sir qiluvchi tarkibga ega. Bu preparatdan keng miqyosda foydalanilishiga qaramay og‘ir buyrak yetishmovchiligi, preparatning faol va yordamchi moddalariga yuqori sezuvchanlik, fruktozaga sezuvchanlik, 15 yoshgacha bo‘lgan bolalarda qondagi fosforning past darajasi kabi qarshi ko‘rsatmalari hamda qichishish, krapivnitsa, diareya, ich qotishi, gipermagnezemiya, giperalyuminemiya, gipofosfatemiya, giperkalsiuriya, osteomalyatsiya singari nojo‘ya tasirlari kuzatilgan.

Almagel - NEO suspenziyasi, kimyoviy tarkibi Algeldrat+Magniya gidroksid+Simetikon.




$Al(OH)_3$ (Algeldrat)



$Mg(OH)_2$ (Magniya gidroksid)

$(C_2H_6OSi)_n \cdot (SiO_2)_m$ (Simetikon)

Simeticone



Bu preparat ham asosan zarda, jig‘ildon qaynashida qo‘llaniladi va gipermagniemiya, allergiya, diareya, ich qotishi, giporefleksiya, bronxospazm, giperalyuminemiya, chanqoq kabi nojo‘ya ta’sirlari mavjud. Surunkali buyrak yetishmovchiligi, homiladorlik, gipofosfatemiya, alsgeymer kasalligi, 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar, preparatning tarkibiy qismi bo‘lgan faol yoki har qanday yordamchi moddaga yuqori sezuvchanlik bu preparatni ishlatish mumkin bo‘lmagan holatlarni bildiradi.

Hozirda farmasevtika soxasidagi va xalq tabobatida juda uzoq yillardan beri izlanishda bo‘lgan olimlarimiz tabiiy dorivor o‘simliklar xomashyolaridan qator xastaliklarni davolash, oldini olishda juda katta yutuqlarga erishgan. Jig‘ildon qaynashi tez –tez uchrab turadigan holat bo‘lgani uchun ham iloji boricha nojo‘ya tasiri kamroq va kelib chiqishi tabiiy preparatlardan foydalangan ma’qul. Quyida jig‘ildon qaynashida va oldini olishda foydalansa bo‘ladigan dorivor o‘simliklar va ularni kimyoviy tarkibi bilan tanishib chiqamiz.

Fitoterapiyaga, yani dorivor o‘simliklar xomashyolari bilan davolashga bo‘lgan bunday talabning sabablaridan biri, ayniqsa surunkali patologik jarayonlarda isbotlangan yuqori samaradorlikdir. Bunday sharoitlar qariyalarda eng ko‘p uchrashi hisobga olinsa keksalikda, geriatriyada ananaviy tibbiy yordam ko‘rsatish usullaridan biri sifatida o‘simlik dori vositalarining ko‘lamini maqsadli ravishda kengaytirish kerak [5].

Gazanda o‘ti (Urtica dioica (krapiva)) juda ko‘pchilikka tanish bo‘lgan dorivor o‘simlik bo‘lib, yana bir nomi qichitqi o‘t deyiladi va kimyoviy tarkibida juda ko‘p miqdordagi turli xil foydali moddalar mavjud: oqsillar (100 g uchun 3,7 g), yog‘lar (100 g uchun 0,5 g), uglevodlar (100 g uchun 5,4 g), kletchatka, vitaminlar: askorbin kislota, B vitaminlar guruxi, E va K vitaminlari, organizmda A vitaminiga sintezlanadigan karotin va karotinoidlar (ksantofil, ksantofilepoksid, violaksantin), mikroelementlardan: bariy, oltingugurt, temir, kaliy, kalsiy, xrom, mis, marganes, aluminiy, molibden. Ushbu moddalarga qo‘shimcha ravishda qichitqi o‘ti tarkibida gistamin, uritsin (glikozid), taninlar, fitonsidlar, xlorofill, flavonoidlar, organik kislotalar (chumoli, gallus kislotalari) ham mavjud. Xomashyo sifatida barglaridan foydalaniladi.

Tog‘ rayhon (Origanum maru) - tanasida efir moyi (1,2% gacha) topilgan, uning asosiy komponentlari timol (40% gacha), simol, karvakrol, seskviterpenlar, geranil asetat, a-tuyon, a-terpinen. Bundan tashqari, o‘simlik tarkibida flavonoidlar mavjud: apigenin, luteolin, 7-glyukoronid, luteolin-7-glyukozid, izoroifolin, kosmosiin; askorbin kislotasi va taninlar (19% gacha), makro- va mikroelementlar, urug‘larida yog‘ (28% gacha) mavjud. Xomashyo sifatida yer ustki qismidan foydalaniladi.

Limono‘t (Melissa officinalis) o‘simligi ham keng tarqalgan dorivor o‘simlik hisoblanadi. Limono‘ti limon hidli efir moyini saqlaydi va u sitronellal (37,33%), timol (11,96%) sitral (10,10%) i β-kariofillen (7,27%) dan iborat. Shuningdek, organik kislotalar, tanin, s vitamini, flavonoidlar, K, Na, Mg, Fe, Cu, Zn, Mn, Ni, Sa tuzlari bor. Qadimgi tibbiyotda limono‘t yurakni, miyani, oshqozon va jigarni mustahkamlaydi deb hisoblanilgan (3). Xomashyo sifatida yer ustki qismidan foydalaniladi.

Sabzi soki (Daucus carota) - tarkibida RR, A, B1, B2, B5, B6, B9, C, E, va K vitaminlari, shuningdek, temir, rux, yod, mis, marganes, selen, xrom, ftor, molibden, bor, vanadiy, kobalt, litiy, aluminiy, nikel, kalsiy, magniy, natriy, kaliy, fosfor, xlor va oltingugurt bor. Bundan tashqari, sabzi kaloriyaligi yuqori emas - 100 gramm uchun atigi 35 kilokal [1].

Kartoshka soki (Salanum tuderozum) - kimyoviy tarkibi C, PP, B9, karotin, pantoten kislota, minerallar, monoshakarlar va boshqalar kabi vitaminlar majud [1].

Yuqoridagi dorivor o‘simliklarni tarkiblaridan ko‘rinib turibdiki ular o‘z tarkibidagi mikroelementlar va birikmalar bilan jig‘ildon qaynashini to‘xtatuvchi zamonaviy dori-darmonlar tarkiblariga ancha yaqin.

XULOSA

Keltirilgan malumotlarga asosan jig‘ildon qaynashida qo‘llanilayotgan zamonaviy dori-darmonlar bilan dorivor o‘simliklarni tarkiblari o‘xshash bo‘lganligi sababli, xalq tabobatida ushbu o‘simliklar xomashyolaridan foydalanilganligi to‘g‘risida juda ishonchli ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ularning xomashyolaridan tayyorlangan tarkiblardan uzoq vaqt istmol qilish mumkinligi, tayyorlanishi oson va xomashyolar har yili yangi yetishtirilishini, arzon va foydalanish qulayligi, murakkab uskunalar talab qilinmasligini, eng asosiysi nojo‘ya tasiri juda kamligini hisobga olib nomlari keltirilgan o‘simliklardan jig‘ildon qaynashida qaynatma, damlama, tindirma, yig‘malar va choy shaklida tayyorlab ishlatilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Asqarov I. R. Tabobat qomusi. “Mumtoz so‘z” 2019 (198,869,573,724,489)

2. Лазебник Л.Б., Бордин Д.С., Машарова А.А. Современное понимание гастроезофагеалной рефлюксной болезни: от Генваля к Монреалю // Экспериментальная и клиническая гастроентерология. 2007 г. № 5. – с. 4–10.

3. Казюлин А.Б., Грищенко Е.Б. Рол современных антатсидных средств в терапии кислотозависимых заболеваний. Медитсинский совет 2014 №7. сйберленинка.ру

4. Щербаков П.Л. Антатсидные препараты в практике детского гастроентеролога // Доктор.ру. 2013. №3(81). С. 56–60.

5. Корсун В.Ф., Корсун Е.В., Захаров П.А. Организатсия фитотерапии в сентрах сотсиалной защиты. Методическое пособие – М.: Институт фитотерапии. – 2011.

6.Маалокс суспензия.Инструкция по применению,дозы,побочные действие. https://www.rlsnet.ru/drugs (17.06.2023 г)

7. Картофельный сок.Калорийность. Химический состав пищевая ценность. https://health-diet.ru/table_calorie_users (17.06.2023 г)